https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Kobilova Feruza Tolibovna

Buxoro Xalqaro Universiteti tayanch doktoranti

Tel raqami: +998936897960

E -mail: fkobilova2019@mail.ru

MUTAXASSISLIKKA YO'NALTIRILGAN INGLIZ TILINI O'QITISH OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MULOQOTCHANLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya

Bugungi kunda mamlakatimizda talabalarning chet tillarni mukammal o‘rganishlari, barcha sohalarda chet tilini bilgan holda o‘zlarini namoyon eta olishlari uchun zarur shart–sharoit yaratib berish, ularning xorijiy tilda og‘zaki va yozma nutqlarini rivojlantirish muammolari ilgari surilmoqda. Ma’lumki, bu muammolarni hal qilish bevosita shaxsning ijtimoiylashuvi jarayoni bilan bevosita bog‘liq. Ushbu tushuncha psixologik va pedagogik kategoriyalaga asoslanib, bu shaxsni o‘rab turgan tashqi ijtimoiy muhit ta’sirlariga berilishi, muloqotni o‘zlashtirgani, uning norma va qoidalarini o‘zlashtirishga moyilligi, o‘zlashtirganlik darajasini ifodalovchi jarayondir. Bu tushunchaning umumiy ma’nosida insonning tug‘ilib, o‘zini bevosita o‘rab turgan tashqi muhit ta’sirida ulg‘ayishi, shu jamiyat, shu atrof-muhit qurshovida tarbiyalanishi yotadi.Tor ma’noda ijtimoiylashuv shaxsning ijtimoiy muhitga kirib borishi, unda singib ketishi, tashqi ijtimoiy muhit normalarini qabul qilib ularga rioya qilishi yoki qilmasligini tushuntiruvchi jarayondir. Ijtimoiylashuv jarayonida inson jamiyatdagi ijtimoiy normalarni o‘zlashtiradi, turli rollarni bajarishga o‘rganadi, jamoatchilik sharoitida o‘zini tutish ko‘nikmalarini hosil qiladi, o‘zi uchun qiziqarli, manfaatli muloqot usulini tanlaydi. Shaxsning ijtimoiylashuvi shu ma’noda uning ijtimoiy borliqni bilishiga, anglashi va yashashiga asoslanadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Abstract

Today, in our country, the problems of creating the necessary conditions for students to perfectly learn foreign languages, to express themselves in all areas with knowledge of a foreign language, to develop their oral and written speech in a foreign language are being put forward. As is known, the solution of these problems is directly related to the process of socialization of a person. Based on the psychological and pedagogical category, this concept is a process that expresses the degree of exposure to the influence of the external social environment surrounding a person, the ability to master communication, the tendency to master its norms and rules, and the degree of mastery. The general meaning of this concept is that a person is born and grows up under the influence of the external environment that directly surrounds him, is brought up in this society, this environment. In a narrow sense, socialization is a process that explains the entry of a person into the social environment, his assimilation into it, his acceptance of the norms of the external social environment and whether he complies with them or not. In the process of socialization, a person learns social norms in society, learns to fulfill various roles, develops skills for behaving in public, and chooses interesting and beneficial communication methods for himself. In this sense, the socialization of a person is based on his knowledge, understanding, and living in social existence.

Kirish:

Psixologik manbalarda ta’kidlanishicha , ijtimoiylashuv manbalariga quyidagilar kiradi: bolalik davrida orttirilgan tajriba – bu jarayon psixik funksiyalarning shakllanishi va dastlabki ijtimoiy xulq normalarining namoyon bo‘lishi bilan parallel ravishda kechadi; ijtimoiy institutlar – ta’lim va tarbiya tizimi; oiladan boshlab, to oliy o‘quv yurtlari va undan yuqori pog‘onalardagi ta’lim olishga imkon beruvchi maskanlar, mehnat jamoalari shular jumlasidandir

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

muloqot va hamkorlikdagi faoliyat jarayonidagi odamlarning ta’siri. Bu o‘rinda ham rasmiy, ham norasmiy sharoitlarda odamlarning bir-birlari bilan muloqoti, muomala maromlari nazarda tutiladi. Inson hayoti mobaynida bajaridigan har bir rolida uni o‘rab turgan ijtimoiy borliqning normalari, qoidalari, xulq-atvor mezonlari o‘z aksini topgan bo‘ladi. Har bir odam hayoti mobaynida xaddan ziyod ko‘p turli rollarni bajaradiki, ularning barchasi uning ijtimoiylashuv tajribasida munosib iz qoldiradi. Shuning uchun ushbu jarayonda har bir odam o‘zining jamiyatda o‘rnini topishga intiladi va samarasiga ko‘ra u yoki bu mavqega erishadi. Aslini olganda ijtimoiylashuvning har bir bosqichida shaxs o‘zining “Men”ini tobora anglab, unga kerakli tuzatishlar kiritib boradi. Agar shaxsiy tajriba ijobiy bo‘lib, odam ko‘rgan-kechirganlaridan yaxshi va to‘g‘ri xulosalar chiqarib, to‘g‘ri turmush tarzini shakllantira olsa, uning odamlar orasida obro‘si yuqori, aks holda shaxs degradatsiyasi, xulqdagi deprivatsiyalar haqida xulosa chiqariladi. Shuni alohida ta’kidlash o‘rinliki, shaxs hamisha ijtimoiy, ya’ni, insoniy munosabatlar doirasida va ta’sirida bo‘ladi, o‘z ongi, aqli, farosati bilan turli xil munosabatlarni nafaqat idrok qiladi, balki, o‘zlashtirib, ularga rioya qiladi ham. Ya’ni, bola ilk yoshligidanoq, shu kabi ta’sirlarning subyekti sifatida “mening hayotim”, “mening oilam”, “do‘stlarim”, “bizning olam” kabi tushunchalar orqali ijtimoiy muhitning ta’sirlarini qabul qilaveradi. Albatta, bu ta’sirlar hamisha ham to‘g‘ri, ijobiy bo‘lmaydi, aks xolda “asotsial xulq”, “ko‘cha bolasi”, “dangasa”, “yomon bola” tushunchalari bo‘lmagan bo‘lardi . Insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, harakat orqali ijtimoiylik va buning oqibatida turli ijtimoiy voqealar kelib chiqadi. O‘zaro ta’sirning birinchi bosqichi insonlarni bir-birlarini ijtimoiy idrok etishlari hisoblanadi. O‘zaro shaxslararo munosabatlar asosida inson boshqa odamlarni yaxshiroq bilishga va ular bilan ish qilish, qilmaslik haqida bir qarorga keladi. O‘zaro ta’sirning muhim xususiyati bu sababiy shartlar hisoblanadi. Aynan shu asosiy xususiyat hisoblanib, uning natijasida tomonlarning biri faollikning asosini tashkil etib, har ikkala tomon rivojlanish dinamikasini tashkil etadi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Maqsad:

Muloqot vositasida ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirishning muvaffaqiyatli bo‘lishi ko‘p jihatdan unda psixologik qobiliyatni mavjudligiga, mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Kolker, Y. M. o‘z ilmiy izlanishlarida, ushbu jarayonni muvaffaqiyati nutq qobiliyatini rivojlanganligida deya ta’kidlaydi. Muloqotda nutq qoidalarini samarali egallanganligi, **ingliz tili ko‘nikmalarini** rivojlanishining muhim omili sifatida e’tirof etadi

Muloqot vositasida ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirishnda quyidagi psixologik kategoriyalar muhim sanaladi:

Diksiya – talaffuz tarzi, talaffuzni aniq ravshanligi darajasi. Nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarida muloqot vositasida ingliz tili ko‘nikmalarini o‘zlashtirish uchun to‘g‘ri talaffuz – eng kerakli qurol hisoblanadi, chunki ingliz tili ko‘nikmalarini tushunish uchun nutqi, talaffuzi ravon, har bir bo‘g‘in, so‘z va tovushlarni aniq aytishi kerak.

Ritmika – ovoz maromi yoki vazni. Ba’zi bir so‘zlarning, bo‘g‘inlarning talaffuzi, ularning tezligi nutqning sur’atini tashkil etadi. Ovoz tezligi har bir o‘quvchining fazilati nutq mazmuni va muomala vaziyatiga bog‘liq. Pauza, temp va nutqning yoqimli bo‘lishi nutq ohangini tashkil etadi. Bir ohangda nutq zerikarli bo‘lib, qiziqish va diqqatni pasaytiradi. Ayniqsa muhim qoidalar haqida gapirgan vaqtda, ya’ni qoida, qonun, aqidalarni ifodalashda ovoz tezligini kamaytirish kerak. Xulosa qilib aytaganda, ingliz tili ko‘nikmalarini o‘zlashtirishda nutq madaniyati bo‘lishi zarur, chunki xar bir o‘qituvchi o‘zining nutqi, chiroyli va ravon, muomala madaniyati bilan boshqalarga namuna bo‘ladi. Bugungi kunga kelib ta’lim oluvchilarning nafaqat chuqur bilimga ega bo‘lishlari, balki ko‘nikma malakalarini puxta egallash orqali kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishlari davr talabiga aylandi . Ta’limning bakalavr yo‘nalishi bitiruvchilarini, ya’ni bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash bosqichida

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

dasturni isloh qilishda Yevropa Kengashining «Chet tillarni egallash umumevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘qitish va baholash» to‘g‘risidagi umume’tirof etilgan xalqaro me’yorlari (CEFR– Common European Framework of Referance) ni tadbiq etish bilan birga O‘zbekiston Respublikasining uzluksiz ta’lim tizimida chet tillarni o‘rganishga qo‘yiladigan talablar, o‘zlashtirish darajasini baholash qoidalari ishlab chiqildi. Unda chet tilini o‘qitishga ixtisoslashmagan ta’lim yo‘nalishlari bitiruvchilari OTMdagi o‘qish faoliyatida ta’lim nihoyasida B2+ darajani o‘zlashtirishlari talab qilib qo‘yilar ekan, malaka talablarida tilga ixtissoslashmagan ta’lim muassasasi talabalarining kasbiy tayyorgarliklari bilim, malaka va ko‘nikmalariga beriladigan talablar ham o‘zgardi. Kommunikativ kompetensiya o‘rganilayotgan chet tilida gaplashuvchilar bilan muloqot qila olish qobiliyati hamda o‘quvchilarni tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyati bilan tanishish orqali, o‘z mamlakati madaniyati, urf–odatlari va an’analarini yanada chuqurroq anglash va ularni suhbat qilish jarayonida ko‘rsata olishni nazarda tutadi. Nutq faoliyati odob–ahloq qoidalarini lingvomadaniy nuqtayi nazardan o‘rgatish ingliz tilida so‘zlashuvchi insonlar tomonidan qabul qilingan madaniy me’yorlar, xalqlar tomonidan baham ko‘rilgan qadriyatlar, fikrlash va faoliyat stereotiplari, nutqiy qobiliyatlarni anglashga yordam beradi. Bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash bosqichi dasturini isloh qilishda Yevropa Kengashining «Chet tillarni egallash umumevropa kompetensiyalari: o‘rganish, o‘qitish va baholash» to‘g‘risidagi umume’tirof etilgan xalqaro me’yorlari (CEFR– Common European Framework of Referance) ning o‘quv fanining maqsad va vazifalarida qayd etilishiga muvofiq, kommunikativ kompetensiyasi– o‘rganilayotgan xorijiy til bo‘yicha egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni muloqot jarayonida qo‘llash qobiliyatidir. Ushbu hujjatda kompetensiyalar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

lingvistik kompetensiya til sohiblari bilan muloqot qilish uchun til materiali (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglash,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

gapirish, o‘qish va yozish) bo‘yicha ko‘nikmalarni egallashni nazarda tutadi; **sotsiolingvistik kompetensiya** so‘zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi. Sotsiolingvistik kompetensiya ijtimoiy– madaniy kompetensiyani o‘z ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini: o‘zi yashayotgan mamlakatning urf–odatlari, qadriyatlari, marosimlari va boshqa milliy–madaniy xususiyatlarini bilish hamda hamda tili o‘rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko‘zda tutadi; **pragmatik** kompetensiya o‘rganilayotgan chet tilida kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda takroran so‘rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatdan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi. Mazkur standartda diskurs kompetensiyasi pragmatik kompetensiya tarkibiga kiritiladi. Mazkur kompetensiya og‘zaki va yozma nutqda fikrlarni tegishli til vositalari orqali ifodalashni nazarda tutadi; **diskurs** kompetensiyasi og‘zaki va yozma nutqdagi izchillikni ta’minlashda lingvistik signallarni tushunish va interpretatsiya qilish ko‘nikmalarini nazarda tutadi G.V.Rogova til o‘rganishni uchta tarkibiy qismgaya’ni lingvistik, psixologik va metodologik qismlarga ajratib ko‘rsatdi **lingvistik** komponent o‘z tarkibiy qismiga: til materiallari (fonetik, grammatik va leksik), nutqiy (turli vaziyatga oid) va ijtimoiy–madaniy elementlarini qamrab oladi. Chet tillarni o‘qitishda nutqiy birliklar muloqot vaziyatiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi, ya’ni til madaniyat va jamiyat munosabatida namoyon bo‘lib, millat madaniyatining manbasi sifatida ikki (kommunikativ va kumulyativ) vazifani bajaradi.

Psixologik komponent kommunikativ maqsadda o‘rganilayotgan til haqidagi bilim va ko‘nikmalardan foydalanishni takomillashtirishdir. Chet tillarni o‘rganish jarayonida talabada nutq mexanizmlari shakllanadi, nutqiy ko‘nikmalar tizimi o‘zlashtiriladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Metodologik komponent o‘rganilayotgan tildan amaliyotda, ya’ni muloqotning shaxsga yo‘naltirilgan vaziyatida (og‘zaki va yozma shaklda) samarali foydalanishdir.

L.S.Vigotskiyning ta’kidlashicha bola ona tilini ong ishtirokisiz o‘rgansa, chet tilini ongli ravishda o‘zlashtiradi. Ona tilida nutqiy malaka pastdan yuqoriga qarab borsa, chet tilni o‘rganish yuqoridan pastga qarab rivojlanib boradi.

Xorij psixologlaridan G.A. Myurrey 1938-yilda muloqotga (ehtiyoji)ga ta’rif bergan xolda uning ijtimoiy-psixologik xodisa ekanligiga e’tibor bergan. Uning yozishicha muloqot: “Do‘st orttirish va bog‘lanib qolish. Odamlardan xursand bo‘lish va ular bilan yashash. Ular bilan muloqotda va hamkorlikda bo‘lish. Sevish. Guruhlarga birlashish” (Xekxauzen) kabi xolatlarda namoyon bo‘ladi. Ya’ni, odamlar bilan munosabatlarni qurish va shu munosabalarni keyinchalik davom ettirish turli maqsadlarni ko‘zlagan holda amalga oshirilishi mumkin. Masalan “yaxshi ta’surot qoldirish” yoki “boshqalar ustidan hukmronlik qilish”, “yordam ko‘rsatish yokiyordamni olish”.

A. Maslou muloqotni insoniyat ehtiyojlari iyerarxiyasining eng yuqori darajasiga mansubdir, deb ta’kidlagan. Matsumoto D kommunikativ kompetentlikni ikki xil tomonini ajratib o‘tadi: muloqotga ehtiyoj (simpatiya, muloqotdagi qo‘llab-quvvatlash) va rad etilishdan qo‘rqish (muloqot o‘rnatilmasligi yoki rasmiyligicha qolishi).

X. Xekxauzen fikricha, muloqotga ehtiyoj universal hisoblanib, yosh, gender va etnik mansublikdan qat’iy nazar barcha insonlarga xos ehtiyojdir. Ammo ushbu ehtiyojning xarakteri va mazmuni ta’lim-tarbiya mazmuni, ijtimoiylashuv sharoitlari va ma’naviy tomonlarga bog‘liq.

Garvard universitetining olimi G.Myurrey tomonidan tuzilgan muloqotga ta’sir qiluvchi muhim motivlarining ro‘yxati har bir kommunikativ kompetentlik muammosi bilan shug‘ullanuvchi tadqiqotchi uchun hozirgi kunga qadar o‘ziga xos qo‘llanma bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Ushbu jadvalda kommunikativ

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

kompetentlik uchun muhim motivlar sanab o‘tilgan va ularga qisqacha ta’rif ham berilgan (1.2-jadvalga qarang).

1.2- jadval.

G. Myurrey bo‘yicha kommunikativ kompetentlik uchun muhim sanalgan ijtimoiy-psixologik omillar ro‘yxati

Omil	**Ijtimoiy-psixologik omil ta’rifi**
Avtonomiya	Barcha xatti-harakatlarda, xulq-atvorda, qarorlar qabul qilishda mustaqil bo‘lishga intiladi, o‘zi xohlagan narsani gapirish yoki amalga oshirishga moyillik, konformizmni namoyon etadigan vaziyatlardan qochadi, yuqori mansabdorlarni tanqid qilishga moyil, mas’uliyat va javobgarlikdan qochadi
Agressiya	Birovlarni ko‘pchilik ichida tanqid qilishga, behurmat qilishga, o‘z fikrlarini ochiq bayon etishga, ustidan kulishga, gunohkor etishga, agar xatolik yuz bergan holatlarda o‘ch olishga moyil bo‘ladi
Affiliatsiya	Turli ijtimoiy aloqalar o‘rnatish, do‘stlar orttirish, ularning e’tiboriga sazovor bo‘lish, oshnalar bilan birgalikda qarorlar chiqarish, yolg‘izlikdan qochish ehtiyojini sezadi
O‘z “Men”ini namoyish qilish	O‘zgalarning e’tiborida, diqqat markazida bo‘lishga, ularda yaxshi taassurot qoldirishga intiladi, hatto o‘z tashqi ko‘rinishi bilan ham o‘zgalarga yoqishga harakat qilib, ularning munosabatini aniqlashga ehtiyoj sezadi
Ustunlik qilish	Yetakchi bo‘lish ehtiyoji va o‘zgalar ham uni shunday qabul qilishlarini istaydi, o‘z nuqtayi nazariga ega bo‘lib, uni o‘zgalarga ham o‘tkazishga moyillik sezadi, boshqalar uchun ham qarorlar qabul qilishdan tortinmaydi, o‘zining haqligini hamisha isbot qilish, boshqalarni o‘z ortidan ergashishiga erishishga intiladi
Erishilgan yutuqlar yoki muvaffaqiyat	Hamisha biror narsaga erishish, o‘zgalardan yaxshiroq bo‘lish, tirishqoqlik, kuch va irodani talab qiluvchi ishlarga moyil, qiyin vazifalarni yetarli darajada yaxshi bajarish orqali ijtimoiy tan olinishga erishishga intiladi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

G‘amxo‘rlik ko‘rsatish	Do‘stlarga ko‘mak berish, ularga xayrixohlik va mehribonchilik qilishga tayyor, ularga xizmatlar qilish, ayblarini kechirish, muammolar paydo bo‘lganda ularni tushunishga moyillik sezadi
Ko‘makni qabul qilish	O‘zgalarga yordam so‘rab murojaat qilishga va ularning ko‘magini qabul qilish, ularning yoqtirishlariga erishish, mushkul vaziyatlarda o‘zgalar madadini his qilishga moyil
O‘yin motivi	Har qanday jiddiy ishga nisbatan turli o‘yinlarni afzal ko‘rib, hamisha maroqli dam olish, vaqtni xushchaqchaqlik bilan o‘tkazishga intiladi, voqealar rivojiga qiziqadi. Ba’zan beg‘amlik va mas’uliyatsizlik kabi sifatlar bilan uyg‘unlashadi
Xavf-xatardan qochish	Turli xavf-xatarlardan - og‘riq, jismoniy jarohatlar, kasalliklar va hatto o‘limni oldini olish yo‘llarini qidirishga harakat qiladi. Ehtiyotkor bo‘lishga harakat qiladi
Kamsitilish, xo‘rlanishdan qochish	Kamsitilishdan qochishga, befarqlik, haqorat, pichin gapli vaziyatlardan tezroq chiqib ketishga harakat qiladi. Muvafaqiyatsizlikka uchrash motivatsiyasi kuchli bo‘lganligi sababli, aktiv faoliyat ko‘rsatishdan qo‘rqadi
Anglash, mulohaza yuritish	Umumiy masalalarni o‘rtaga tashlab, ularga javob qidirish, mavhum atamalar ustida bosh qotirish, umumlashtirishga moyil bo‘ladi. Hayotning ma’no va mohiyati, yaxshilik va yovuzlik haqida ko‘p o‘ylaydi
O‘zgalarni inkor (rad) etish	Kimlargadir yaxshi aloqalar o‘rnatishiga xalaqit beradi; tanqidiylik, qo‘pollik, kimlarnidir ajratishga moyil bo‘ladi, benomus. O‘zgalarni hech qachon yuzaga chiqarmaslikka moyil
Tan olish yoki obro‘li insonlarni tan olish	O‘zgalarning yo‘riqlarini qabul qilish, ularning takliflariga quloq tutish, boshqalarga ma’qul bo‘lgan qarorlarni hurmat qilish, ularni kerak joyda maqtash, tan olishda moyillik, shunday ichki ehtiyojning borligi, turli xil shartlar va an’analarni buzishdan qochishga intiladi
Qarshilik ko‘rsatish	Omadi chopmaganda vaziyatni o‘z qo‘liga oladi. O‘z kuchsiz tomonlari ustida ishlaydi. Qo‘rquvni bosadi. Haqoratlarga amaldagi harakat bilan javob qaytaradi. Qiyinchiliklarni yengib o‘tishda uchraydigan to‘siqlardan qo‘rqmaydi. O‘zini hurmat qilish hissini saqlashga harakat qiladi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

O‘zini o‘zi himoyalash	O‘zini tayblov, tanqidlardan himoya qiladi. O‘zi bajargan ishlarni, muvaffaqiyatsizlik va tahqirliklarni bekitadi. O‘z “Men” ini tan oldirtiradi. Nazarida hamma atrofidagilar unga dushmanday tuyuladi, shuning uchun o‘z xatolarini tan olmaydi, vaziyatni bahona qilib o‘zini oqlash yo‘llarini qidiradi, o‘z xatolarini tahlil qilmaydi
O‘zini kamsitish, xo‘rlash	Aybga iqror bo‘lish va xatolar uchun jazolanishga tayyor, noto‘g‘ri harakatlar sodir etilgan vaziyatlarda xatoni o‘z bo‘yniga oladi, o‘zini aybdor his qilib, o‘zini ko‘pchilikdan ortda, yomonroq deb qabul qilishga moyilligi bo‘ladi.
Geteroseksuallik, seksual munosabatlar	Qarama-qarshi jins vakillariga yo‘nalganlik, qarama-qarshi jins vakillari bilan uchrashib turishga, ularga yoqishga, jinsiy munosabat mavzularida ular bilan muloqot qilishga moyil bo‘ladi. Erotik o‘zaro munosabatlar doirasinin shakklantiradi va rivojlantiradi
Tartib-intizomli	O‘z hayotini mayda-chuyda jihatlarini ham hamisha tashkil etishga intiqlik, faoliyatni oldindan rejalashtirishga moyillik, doimiy orastalik, saronjom-sarishtalikka intiladi, ish o‘rnini tartibda tutish, ovqatlanish vavaqt me’yorlarini ham doimiy tartibda ushlashga ehtiyoj sezadi. Har narsada tartib, tizimlilik, izchillik, orastalik, aniqlik, go‘zallikka intiladi
Hissiyotlarga berilgan	Hissiy ta’surotlarni izlaydi va ulardan bahra oladi.

Yuqorida ko‘rib o‘tgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, shaxslar ijtimoiy munosabatlarni oson o‘zlashtiradilar, odamlarga nisbatan sezgirroq va muloqotga moyilroqdirlar. Yana ularni boshqa insonlar bilan aloqalarni qo‘llab-quvvalashga harakat qilishlari haqida ham tahmin qilish mumkin. Bu boradagi tadqiqotlar ushbu tahminlarni tasdiqlaydi.

Shunday qilib, xorijda o‘tkazilgan ko‘plab tadqiqotlar ham muloqot ijtimoiy-psixologik xodisa ekanligini tasdiqlaydi va uning guruhiy jarayonlar va unda faoliyat samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini isbotladi. Bundan biz ham o‘z tadqiqotimiz uchun nazariy-metodologik xulosa chiqardik.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Til o‘rganishda muloqotning o‘rni va uning faoliyat samaradorligiga ta’siri masalalari O‘zbekiston psixologlari tomonidan ham o‘rganilgan. Jumladan,P. I. Ivanov psixologiya faniga yirik xissa qo‘shgan olimlardan biri hisoblanadi. Uning qiziqish va layoqat, kasb tanlash motivlari, ta’limning psixologik asoslari, ta’limda individual munosabatni ro‘yobga chiqarish, ta’lim jarayonini faollashtirish masalalariga bag‘ishlangan asarlarida muloqot va uning darajalari to‘g‘risidagi ma’lumotlar tahlil qilgan. Ayniqsa, uning qiziqish, layoqat, havas, muloqot, motivatsiya talqiniga oid mulohazalari, g‘oyalari o‘z davrida muhim ahamiyat kasb etgan.

A.A. Fayzullayev o‘z tadqiqotlarida o‘qituvchi va o‘quvchi muloqot jarayonini bosqichma-bosqich tahlil qilishni taklif qilgan A. Fayzullayev bu jarayonni beshta bosqichga bo‘lib o‘rganadi. Bu bosqichlar quyidagilar:

1- suhbatdoshni anglanishi;

2- suhbatdoshni qabul qilinishi;

3-ichki xoxishni tashqi tomonga tadbiq qilinishi;

4- fikrni mustahkamlanishi;

5- fikrni faollashuvi.

Atoqli psixolog M.G. Davletshin mazkur muammoga salmoqli hissa qo‘shgan olim bo‘lib hisoblanadi M.G. Davletshin va uning shogirdlari kasb tanlash motivlari, umuman olganda esa kasb tanlash psixologiyasining nazariy va amaliy muammolari bilan shug‘ullanib kelishgan hamda muloqot kategoriyalarini yoshga oid xususiyatlari haqida ta’kidlab o‘tgan.

V.M.Karimova o‘z asarlarida muloqotni samarali tashkil qiluvchi motiv va motivatsiya muammosiga ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazaridan yondashgan. U

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

o‘z tadqiqotlarida muloqot shaxs ijtimoiylashuvi uchun muhim komponentlardan biri ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

V.A. Tokareva aksariyat ilmiy tadqiqotlarida muloqotni shakllantirish, kasbiy kompetentlikni tarkib toptirish uchun muhim ekanligini aytib o‘tadi[327;205-b]. B.R. Qodirovning keyingi yillardagi tadqiqotlarida layoqat, intilish, qobiliyat, iste’dod hamda ularni muloqot bilan bog‘liq tomonlarini ochib berilgan.

R.B. Shoumarovning izlanishlarida o‘quvchilarga individual yondashish, ularni oilaviy turmushga tayyorlash, insonni inson tomonidan idrok qilishni muloqot orqali amalga oshirish mumkinligi asoslangan.

R.Z. Gaynutdinov tadqiqotlarida o‘qituvchi shaxsining etnopsixologik xususiyatlari, kasb tanlashning psixologik asoslari, kasbiy tayyorgarlik bosqichlari, kasbiy mahoratni oshirish mexanizmlarida kommunikativ kompetentlikning roli yuksak va asosiy ekanligi (birlamchiligi) ta’kidlab o‘tilgan. Uning izlanishlarida kommunikativ kompetentlikni motivatsion iyerarxiyasi, uning muvaffaqiyatini ta’minlash masalasi ustuvor ekanligi ko‘zga tashlanadi.

SH.R. Barotovning ko‘pgina izlanishlarida ta’limda psixologik xizmatni samarali yo‘lga qo‘yishda muloqotning o‘rni va ahamiyati belgilab berilgan. U o‘z izlanishlarida ta’lim mussasalarida psixologik xizmatning tashkil etilishi, uning metodologik va nazariy asoslari tahlil qilgan holda, yoshlarni ta’lim jarayonidagi muloqotdan qoniqish masalalari yuzasidan empirik ma’lumotlar olingan bo‘lib, tegishli ijtimoiy psixologik xulosalar chiqarilgan. Tadqiqot nitijalariga ko‘ra, shaxsning shaxslararo munosabatlar bilan bog‘liq hamkorlik faoliyatidan yetarlicha qoniqmayotganligi ma’lum bo‘lgan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

Muloqotning asosiy jihatlari:

1. Kommunikativ tomon: Odamlar o‘rtasida axborot almashinuvi, fikr va his-tuyg‘ularni bildirish.
2. O‘zaro ta’sir etish: Muloqot jarayonida shaxslar bir-birlariga ta’sir o‘tkazib, o‘zaro munosabatlarni shakllantiradilar.
3. O‘zaro tushunish: Muloqot orqali shaxslar bir-birlarini yaxshiroq tushunish va ijtimoiy tajriba almashish imkoniga ega bo‘ladilar.
4. Jamiyatning rivojlanishida xususan, shaxslararo munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishida muloqotning o‘rni katta. Muloqot orqali insonlar ijtimoiy tajribaga ega bo‘lib, shaxsiy rivojlanishlarini ta’minlaydilar. Masalan, pedagogik muloqot o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning samarali bo‘lishiga yordam beradi.
5. Xulosa qilib aytganda, muloqot insonlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqa, tushunish va ijtimoiy munosabatlarning asosidir. Uning madaniyati va psixologiyasi shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishda muhim rol o‘ynaydi. Nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining til o‘rganish gko‘nikmasini rivojlantirishda muloqot omillarining o‘rni va ahamiyati mavjud.
6. Talabalarning suhbatdoshi bilan erkin muloqotga kirisha olish, chet ellik suhbatdoshi bilan o‘zi mansub bo‘lgan millat madaniyati, urf– odatlari yuzasidan muloqotga kirisha olish ko‘nikmasi nofilologik ta’lim yo‘nalishi talabalarining ingliz tilini o‘qitishda muloqot omillarini shakllantiradi.
7. Psixologiya fanida talabalarining muloqotning shaxsga yo‘naltirilgan rolli va rivojlantiruvchi kognitiv xususiyatlari, usullari alohida o‘rganilgan.
8. Muloqot tushunchasining mohiyati ijtimoiy–psixologik xususiyatga ko‘ra quyidagi jihatlari bilan belgilanadi:
9. Uning ifodasi shaxslararo o‘zaro manfaatli va mazmunli munosabat o‘rnatishda, qobiliyatning amaliy faoliyatida haqqoniy namoyon bo‘ladi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

10. Shaxsning muloqotga ehtiyoji, o‘z qarashi va g‘oyalarini taqdim qilishi, o‘ziga ishonchi, o‘z kommunikativ faoliyatiga baho berishi kabi xususiyatlarini namoyon qiladi.
11. Shaxslararo munosabatning maqsadli va samarali bo‘lishida o‘zining hayotiy tajribasi, muloqot mahorati, individual–psixologik xususiyatlarini aks ettirishi ahamiyatli.

Talabalarda muloqot vositasida til o‘rganishning yettita shakli mavjud, ular quyidagilardan iboratdir: 1) faoliyatga kirish, 2) mustaqil harakatlar (o‘qituvchi bilan talaba hamkorlikda bajaradilar); 3) o‘qituvchi harakatni boshlab beradi va unga talabani jalb etadi; 4) taqlid harakatlari (o‘qituvchidan ibrat olgan talaba ana shu namuna asosida harakat qiladi); 5) madad harakatlari (o‘qituvchi talabaga oraliq maqsadni va unga erishish usullarini tanlashda yordam beradi hamda oxirgi natijani nazorat qiladi); 6) o‘zini o‘zi boshqarish harakatlari (o‘qituvchi umumiy maqsadni ko‘rsatishda va oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi); 7) o‘zini o‘zi qo‘zg‘atuvchi harakatlar; 8) o‘zini uyushtiruvchi harakatlar.

Yuqoridagi ilmiy-nazariy tahlillardan ko‘rish mumkinki, talabalarda muloqot vositasida ingliz tili ko‘nikmalarini rivojlantirish muammosi bilan bevosita va bilvosita shug‘ullanganliklarini ko‘rishimiz mumkin. Ularning yondashuvlari ko‘p holatlarda pedagogik hamda turli umr davrlariga taalluqli bo‘lishiga qaramay, ushbu muammoning yurtimizda o‘rganilishiga nazariy hamda amaliy hissadir, deb baholashimizga imkon beradi. Lekin shuni alohida ta’kidlashni o‘rinli deb hisoblaymizki, hali ham o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha yetarli pedagogik-psixologik tadqiqotlar hali olib borilmagan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Алфред А. О нервическом характере - Под ред. Э. В. Соколова; пер. с нем. И. В. Стефанович. — Спб.: Университетская книга- 1997. - 388 с.
2. Ананев Б.Г. Избранние психологические труди в 2-х т. - М.: Педагогика- 1999.- Т1. – 287с.
3. Ананев Б.Г. О проблемах современного человекознания. М.: Наука, 1977.- 381 с.
4. Асеева И.Н. Взаимосвяз синдрома эмоционалного вигорания и стратегий преодоления стресса у социалних работников: Дис. ... канд.псих.наук.- Самара, 2007.- 157 с.
5. Башкин М.В. Конфликтная компетентност личности:Дис. ... канд.псих. наук.- Ярославл, 2009.- 242 с.
6. Бек А. и др. Когнитивная терапия депрессии/ А. Бек, А. Раш, Б. Шо, Г., Эмери. СПб .: Питер, 2003.
7. Белинская Е.П., Тихомандритская О.А. Социалная психология личности. М.: Аспект Пресс, 2001.-301с.
8. Берн Э. Игри, в которие играют луди. Луди, которие играют в игри. Минск Современний литератор.-2002.- 447с.
9. Бодалёв А.А. Личност и обшение: избранние труди.- М.: Международная пед.академия.- 1995.-324с.
10. Божович Л.И. Избранние психологические труди. Проблеми формирование личности.- М.: Международная пед.академия, 1995.-209с.
11. Виготский Л.С. Собр.соч. Т.4., М.: Педагогика, 1984. -127 с.
12. *Михайлова Е.С.,* Метод оценки степени нестабильности топографии вызванных потенциалов и его применение в экспериментальной задаче выделения значимой буквы. Журнал высшей нервной деятельности им. И.П. Павлова. 2011. Т. 61. № 2. С. 242-247.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 03.12.2025
Nashr etilgan sana: 26.01.2026

13. Gaynutdinov R.Z. Psixologicheskiye aspekti podgotovki uchiteley dlya uchebnix zavedeniy novogo tipa// Yangi turdagi o‘rta maxsus o‘quv yurtlarida ta’lim va tarbiyaning samaradorligini oshirishning psixologik muammolari. T., 1998, -S.14-21.
14. Gaynutdinov R.Z. Psixologiya lichnosti uchitelya uzbekskoy natsionalnoy shkoli i yeye formirovaniye v sisteme neprerivnogo obrazovaniya: Avtoref. dis. ... dok.psix.nauk. Sankt-Peterburg, 1992.-34s.
15. Елканова СБ. Основи профессионалного самовоспитания будушего учителя. М.:МГУ. 1989.-189с.